



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 11-yanvar

23-11-163-Q/25

Farg‘ona tumani hokimligi

Tuman Tibbiyot birlashmasi tizimidagi ko‘p tarmoqli markaziy va oilaviy hamda oilaviy shifokorlik punktlariga yuridik shaxs maqomini berish to‘g‘risida

Farg‘ona tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika, KTMP Avval hududiy filiali, KTMP Mindon hududiy filiali, KTMP Chimyon hududiy filiali, 64-oilaviy poliklinika, 65-oilaviy poliklinika, 104-oilaviy poliklinika, Tashabbuskor oilaviy shifokorlik punkti, Taraqqiyot oilaviy shifokorlik punkti, Yordon oilaviy shifokorlik punkti, Sattorobod oilaviy shifokorlik punkti, Yoshlarobod oilaviy shifokorlik punkti, Xo‘roba oilaviy shifokorlik punkti, Shohimardonobod oilaviy shifokorlik punkti, Kaptarxona oilaviy shifokorlik punkti, Log‘on oilaviy shifokorlik punkti, Oqbilol oilaviy shifokorlik punkti, Qo‘rg‘ontepa oilaviy shifokorlik punkti, Markaziy shifoxona, Mindon shifoxonasi, Shoshilinch tez tibbiy yordam bo‘limi hamda Respublika sog‘liqni saqlash Strategik rivojlanish va salomatlik instituti Farg‘ona tumani filiallariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabr kungi PQ-455-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” Qonunni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 8-ilovasi 2-bandiga asosan har biriga alohida yuridik shaxs maqomini qayta tashkil qilib berish maqsadida

QAROR QILAMAN

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 25-dekabr kungi “O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qonunni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-455-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Davlat xizmatlari agentligi boshlig‘iga

Yuqorida nomlari zikr etilgan oilaviy poliklinikalar va oilaviy shifokorlik punktlariga eski INN raqamlari asosida yuridik shaxs maqomi berilsin, ko'p tarmoqli markaziy poliklinikaga esa yangi INN raqami ochilib, yuridik maqom berilsin.

3. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (I.Sharopov) ga

Yuridik shaxs maqomi berilgan OP va OSHPlarni avvalgi INN raqamlari faollashtirilsin.

4. Tuman tibbiyot birlashmasi (X.Toshboyev), Iqtisodiyot va moliya bo'lim (A.Yusupov) lariga

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan ko'p tarmoqli markaziy poliklinika, oilaviy poliklinikalar va oilaviy shifokorlik punktlariga yuridik shaxs maqomi berilishi munosabati bilan yangi hisob-raqamlar ochilib, 2025-yil smeta xarajatlari shu hisob-raqamlarda faollashtirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari I.Toshpo'latov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b



**ABDURAXIMOV
OTABEK.NEMATOVICH**